

2022-yil 17-may

Farg'ona shahar

Farg'ona shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi rahbari D. Xodjayeva bundan buyon bir tomondan «Buyurtmachi» deb yuritiladi, nizom asosida xarakat qiluvchi, ikkinchi tomondan Farg'ona tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi rahbari A. Zikriyayev nizom asosida ish yurituvchi bundan buyon «Xizmat ko'rsatuvchi» deb yuritiladi va quyidagilar haqida ushbu shartnoma tuzildi.

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Xizmat ko'rsatuvchi» Farg'ona shahar ko'chalariga obodonlashtirish xizmatlarini kursatish uchun, «Buyurtmachi» esa ko'rsatilgan xizmat uchun to'lovlarni belgilangan tartibda oshirish majburiyatini oladilar.

II. SHARTNOMA NARXI

2.1.

t/r №	Tovarning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi	So'mmasi
1	Farg'ona viloyati Farg'ona shahar Nafosat MFY Yulduz ko'chasi 2 km qismini joriy ta'mirlash	Xizmat	1	667 788 566	667 788 566
	Jami:				667 788 566

Tovarlarning shartnomaviy umumiy baxosi 667 788 566 so'm (Olti yuz oltmish yetti million yetti yuz sakkiz ming besh yuz oltmish olti) so'm.

III. HISOB-KITOB QILISH TARTIBI.

3.1. «Buyurtmachi» ko'rsatilgan xizmatning 30 % (foiz) Miqdorida pul mablag'ini oldindan o'tkazish yo'li bilan to'lovni amalga oshiradi. Qolgan 70% (foiz) qismini «Xizmat ko'rsatuvchi» tomonidan ishlar to'liq bajarilib, hisob-fakturalarni taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

3.2. Xizmatlar «Xizmat ko'rsatuvchi»ning transportida yetkazib berilganda transport xarajati o'zaro kelishilgan xolda qo'shimcha belgilanadi.

IV. TOVAR YETKAZIB BERISH MUDDATI.

4.1. «Xizmat ko'rsatuvchi» mazkur shartnoma qonuniy kuchga kirgandan so'ng tovarni 10 kun muddat ichida «Buyurtmachiga» ga bajarilgan ishlarni ko'rsatishi shart.

V. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI.

5.1. «Xizmat ko'rsatuvchi» majburiyatlari:

- Shartnomada ko'rsatilgan talablarga rioya qilgan xolda o'z vaqtida «Buyurtmachiga»ga xizmat ko'rsatish ;
- Shartnomaning shartlari «Buyurtmachi» tomonidan buzilganda ko'rsatilayotgan xizmatni to'xtatib qo'yish huquqiga ega:

- Tegishli darajada xizmat ko'rsatilgnadan so'ng, sifatli bo'lmagan xizmatni ushbu shartnomaning 2-bandi talablarida ko'rsatib o'tilgan Shartnomaning umumiy so'mmasidan sifatli bo'lmagan xizmat baxosini qaytarib berish. Sifatsiz ishlar haqida xizmat ko'rsatuvchi xabarnoma olgandan so'ng tomonlar o'rtasida sifatsiz ishlarni bartaraf qilish bo'yicha o'zaro dalolatnoma tuziladi.

- «Xizmat ko'rsatuvchi» yetkazib bergan maxsulotlarini hisob-varaqlarda to'liq va aniq nomini, maxsulot navini, kategoriyasini va boshqa ko'rsatkichlarini ko'rsatishi shart. Shuningdek, hisob-varaqlarni belgilangan tartibda raqamlab, to'liq rekvizitlarni rasmiylashtirish lozim.

5.2. «Buyurtmachi»ning Huquq va majburiyatlari:

- «Buyurtmachi» Shartnomada belgilangan talablarga rioya qilgan xolda to'lovlarni amalga oshirish, tovarni dalolatnoma tuzib ushbu Shartnomada va qonun xujjatlarida belgilangan butlash tartibiga, soniga, sifatiga qarab o'z vaqtida maxsulotni qabul qilib olishi lozim.

- Tegishli darajada sifatli bo'lmagan mol-mulk kelib tushganligi aniqlangandan so'ng, ushbu to'g'risida Tegishli dalolatnoma tuzilib bu haqida 3 kun ichida «Xizmat ko'rsatuvchi»ni ogoxlantirish kerak.

- To'liq rasmiylashtirilmagan xamda maxsulotning sifati, navi va kategoriyalari ko'rsatilmagan hisob-varaqlar bo'yicha to'lovlar amalga oshirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

VI. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni ijro etilmasligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Qonunchiligida Shuningdek ushbu Shartnomada nazarda to'atilgan talablar asosida javobgardirlar.

6.2. «Xizmat ko'rsatuvchi» tomonidan «Buyurtmachi»ga tovar va maxsulotlarni belgilangan muddatlarda yetkazib bermaganligi uchun kechiktirilgan xar bir kun uchun yetkazib berilmagan maxsulot qiymatining 0,5 % (foiz) Miqdorida «Buyurtmachiga» ga penya tulaydi, lekin penya Miqdori kechiktirilgan maxsulot qiymatining 50 % (foiz) dan oshmasligi kerak.

6.3. SHartnoma talablarida ko'rsatilgan belgilangan sifatlardagi xamda butlashdagi mol-mulk yetkazib berilmagan taqdirda, aybdor taraf ushbu maxsulot qiymatining 20 % Miqdorida jarima to'lashiga sabab bo'ladi.

6.4. «Buyurtmachi» tomonidan olingan tovar yoki maxsulot uchun to'lovlar o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda kechiktirilgan xar bir kun uchun kechiktirilgan so'mmaning 0,01 % (foiz) Miqdorida «Xizmat ko'rsatuvchi»ga penya tulaydi, bunda penyaning umumiy Miqdori kechiktirilgan so'mmaning 50 % (foiz) dan ortiq bo'lmasligi lozim.

6.5. Nazorat organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish davomida yetkazib berilgan tovar yoki maxsulotlar narxi yuqori deb topilgan taqdirda o'rtadagi farq yetkazib beruvchi tomonidan qoplanadi.

VII. FORS-MAJOR XOLATLARI

7.1. Xech bir taraf ikkinchi taraf oldida o'ziga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra va yengib bo'lmas kuch mavjud bo'lgan taqdirda ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlari bo'yicha javobgar emas. Favqulotda tuzdagi xolatlarga: suv toshqini, yong'in, yer qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, Shuningdek xarbiy xarakatlar, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari va tarafklar nazorat qila olmaydigan boshqa xar qanday xolatlar Tegishlidir.

7.2. Tarafklar ushbu Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaslik sabablari to'g'risida albatta ikkinchi tarafni ogoxlantirishi shart.

7.3. Agar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch 1 oy davomida uzluksiz ravishda davom etsa, tarafklar bir-birini yozma ravishda ogoxlantirib, Shartnomaning ijrosini bekor qilish yoki qo'shimcha ijro muddatlarini belgilashlari mumkin.

VIII. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu Shartnomani bajarish, o'zgartirish va uni bekor qilishda paydo bo'ladigan nizolar eng avvalo tarafdarning kelishuvi bilan hal qilinadi. O'zaro kelishilmagan taqdirda mavjud nizolar «Buyurtmachi» joylashgan manzildagi tumanlararo iqtisodiy sudlar orqali O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari asosida hal qilinadi.

8.2. SHartnoma tarafdarning o'zaro kelishuviga asosan yoki O'zbekiston Respublikasi Fukarolik kodeksiga hamda amaldagi qonun hujjatlari normalariga binoan keltirilgan zararni to'lagan holda muddatidan ilgari bekor qilish mumkin.

XI. KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR.

9.1 Tarafklar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

9.2. Tarafklar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarni tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

9.3 Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosobalar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kyelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirmaganligini) kafolatlaydi. Tarafklar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va tarafklar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

9.4. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

9.5 Tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoida buzarlklarni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf shartnomani bir tarafdama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

XII. SHARTNOMANI AMAL QILISH MUDDATI VA KUCHGA KIRISHI.

9.3. Ushbu shartnoma 2022-yil 17-maydan 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan 2 nusxada tuzildi.

9.4. Shartnoma tarafklar tomonidan imzolanib, g'aznachilik bo'limida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi.

X. QO'SHIMCHA SHARTLAR

XI. TOMONLARNING MANZILLARI VA REKVIZITLARI

«Buyurtmachi»

«Xizmat ko'rsatuvchi»

Farg'ona shahar Obodonlashtirish Boshqarmasi,
Farg'ona shahar, Mustakilik Ko'chasi №3 uy,
OKONX 90290 MFO 00014
INN 201122919

Farg'ona TYFUK
Farg'ona shahar Mustaqillik ko'chasi 350a uy
Telefon: +99873-226 7999
XR:22626000200210835002
MFO: 01131

Rahbar



D. Xodjajeva



INN: 200197217

Rahbar

A. Zikriyayev

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUNCHILIK
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI HAQIDA
HUQUQIY XULOSA**
№ YJ0261753431

1. Loyiha turi: Shartnoma № 21346.

2. Loyiha nomi: Xizmat ko'rsatish shartnomasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va "E-huquqshunos" elektron tizimiga kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Farg'ona shahar Obodonlashtirish boshqarmasi va Farg'ona tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtasida 2022-yil 17-may kuni ishlab chiqilgan va 2022-yil 17-may kuni "E-huquqshunos" elektron tizimi orqali huquqiy ekspertizaga taqdim etilgan.

4. Loyiha bo'yicha taklif: Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra,

X U L O S A:

Shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti:



X.Soburov

19.05.2022